

O'ZBEKISTON VA BMT HAMKORLIGI (2016-2023)

O'rozboyev Aliyor G'anisher o'g'li

Guliston davlat universiteti Psixologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti,
Tarix yo'naliши talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11285359>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi va Birlashgan Millatlar tashkiloti o'rtaqidagi rivojlanib borayotgan o'zaro hamkorliklar haqida. O'zbekistonning BMT, va boshqa xalqaro tashkilotlari o'rtaqidagi aloqalar, o'zaro almashinuv, tarixiy-madaniy muloqotlar, o'zaro kelishuv va bitimlar manbalar asosida yoritildi va taxlil etildi.

Kalit so'zlar: Birlashgan Millatlar Tashkiloti, vakolatxona, inson huquqlari, sessiya, xalqaro huquq, hamkorlik.

СОТРУДНИЧЕСТВО УЗБЕКИСТАНА И ООН (2016-2023 гг.)

Аннотация. Данная статья посвящена развитию взаимного сотрудничества между Республикой Узбекистан и Организацией Объединенных Наций. На основе источников были освещены и проанализированы отношения между ООН и другими международными организациями Узбекистана, взаимный обмен, историко-культурный диалог, взаимные соглашения и соглашения.

Ключевые слова: Организация Объединенных Наций, права человека, сессия, международное право, сотрудничество.

COOPERATION OF UZBEKISTAN AND THE UN (2016-2023)

Abstract. This article is about the developing mutual cooperation between the Republic of Uzbekistan and the United Nations. Relations between the UN and other international organizations of Uzbekistan, mutual exchange, historical and cultural dialogues, mutual agreements and agreements were highlighted and analyzed based on sources.

Key words: United Nations, representation, human rights, session, international law, cooperation.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti dunyodagi 200 ga yaqin mamlakat a'zo bo'lgan eng yirik xalqaro tuzilma hisoblanib, tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlashga, davlatlar o'rtaqidagi hamkorlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan, davlatlar xalqaro hayoti va hamkorligining barcha yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatadigan betakror, tarixan universal tashkilotdir.

O'zbekiston va BMT o'rtaqidagi miqyosdagi loyihibarini yanada rivojlantirish, uning mamlakatimizdagi vakolatxonasi va o'nga yaqin agentlik faoliyatini takomillashtirish uchun barcha shart-sharoit va imkoniyatlar vujudga keltirilgan. Zero, O'zbekiston mazkur xalqaro tashkilotning ijtimoiy sohadagi muammolarni hal etish bo'yicha nufuzini saqlash, obro'-e'tiborini yanada oshirish, u bilan hamkorlik aloqalarini mustahkamlashdan manfaatdordir.

BMTning O'zbekiston bilan bevosita hamkorligi masalasiga to'xtalagidan bo'lsak, bu aloqalar, avvalo, mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, Markaziy Osiyoni yadro quroldidan xoli zona deb e'lon qilinishi tamoyilini rivojlantirish va amaliyotga tatbiq qilish, mamlakatimizning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyoti, fuqarolik jamiyati institutlari va demokratik qadriyatlarni qaror toptirish yo'nalishlari bilan uzviy bog'liqdir.

O‘zbekiston BMT bilan aloqalarini har tomonlama rivojlantirishga intilib, dunyo miqyosida hamda mintaqamizda tinchlik va barqarorlikni ta’minlash, xalqaro xuquq tartibotini mustahkamlashga munosib xissa qo‘sib kelmoqda. Davlatimizning avvalo milliy manfaatlarimizga tayangan, izchil va samarali tashqi siyosati jahon hamjamiyati tomonidan e’tirof etilib, mamlakatimizning xalqaro maydondagi obro‘-e’tiborining ortishiga xizmat qilmoqda.

Ayniqsa, Yurtboshimizning zamonaviy tahdidlarning oldini olish, global va mintaqaviy xavfsizlik tizimini mustahkamlash, BMT va uning tuzilmalari, birinchi navbatda, Xavfsizlik Kengashini davr talablari asosida isloh etish borasidagi taklif va tashabbuslari beqiyos ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston nuqtai nazariga ko‘ra, hozirgi tezkor va tahlikali davrda insoniyat taraqqiyotini chigallashtirishi mumkin bo‘lgan turli tahdid va mojarolarning oldini olishda BMT asosiy vosita bo‘lishi kerak.

Shuningdek, O‘zbekistonni BMTning YUNESKO va boshqa tashkilotlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorligi ham o‘smoqda. Fan, madaniyat, ta’lim, sog‘liqni saqlash, terrorchilik va ekstremizmga qarshi kurash sohasidagi o‘zaro hamkorliklar mamlakatimiz farovonligini yuksalishiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, O‘zbekiston BMT doirasidagi xalqapro aloqalar bilan cheklanib qolgani yo‘q. Bu kabi munosabatlar Osiyo, Afrika, Yevropa, Amerika qit’alaridagi xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro munosabatlar ha rivlanib bormoqda. Ayniqsa, O‘zbekiston davlati Shanxay Hamkorlik Tashkiloti faoliyatidagi ishtirokida turli tashabbuslar bilan chiqib, mintaqada tinchlikni saqlashga katta hissa qo‘shtimoqda.

1.O‘zbekistonning mustaqillikka erishib, xalqaro munosabatlar subektiga aylanishi, unga BMTning to‘la huquqli a’zo bo‘lishi uchun xalqaro huquqiy asos yaratib berdi.

2.O‘zbekistonning BMT bilan hamkorligi to‘la teng huquqlilik va o‘zaro ishonch asosiga qurilgandir. Mamlakatimizning BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorligi iqtisodiyot, ijtimoiy soha, madaniyatni tiklash, sog‘liqni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish va boshqa sohalarni ham qamrab olmoqda. Bunda bir tomonning boshqasiga nisbatan imtiyozga ega bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

3.Endilikda O‘zbekistonning BMT va uning ixtisoslashgan tashkilotlari bilan ikki tomonlama va ko‘p tomonlama hamkorligi keng tus olmoqda. Bu hamkorlikda inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish ham yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda. BMT mamlakatimizda inson huquqlarini himoya qilish sohasida olib borilayotgan ishlarga beg‘araz yordam bermoqda.

Bu yordam BMTning inson huquqlari va boshqaruvi tizimini qo‘llab-quvvatlash dasturiga asoslangan holda amalga oshirilmoqda.

4.O‘zbekistonda demokratiyalash jarayonlarining chuqurlaishib borishi mamlakatimizning BMT bilan aloqalari va hamkorligining yanada kengayib borishiga asos bo‘lmoqda. O‘zbekiston Respublikasi BMT bilan hamkorlikni va o‘zaro munosabatlarni tobora chuqurlashtirish tashabbuskori bo‘lishi bilan birga, bu xalqaro tashkilotning inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishni ta‘minlaydigan qudratli tashkilotga aylanishining tarafdoi bo‘lib qolmoqda,

5.YUNESKOning bir qator xalqaro konvensiya va deklaratsiyalariga qo‘silishi O‘zbekistonni makon madaniy hamjamiyatiga integratsiyalashuvning huquqiy asosi bo‘lib xizmat qilmoqda.

6.O‘zbekistonning YUNESKOning boshqaruv organlarida ishtiroki to‘g‘rsida masalasini, umuman xalqaro tashkilotlar tushunchasini tashkil etadigan asosiy belgilardan biri bo‘lgan, ularning doimiy organlarining yoki unga tegishli tashkiliy tuzilmasi masalasini o‘rganib chiqildi.

Shavkat Mirziyoyevning ilk marta Bosh Assambleyada 2017 yil 12- sentyabrda, BMTning Nyu-Yorkdagi bosh shtab-kvartirasida qilgan chiqishi, ayniqsa, Tashkilot Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida o‘zbek tilida so‘zlagan nutqi O“zbekiston-BMT munosabatlarining yangi bosqichini boshlab berdi. Mirziyoyev 75-sessiyadagi nutqida quydagilarni bayon qildi:

- Pandemiya davrida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish
- Yoshlar siyosati
- Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik
- Afg‘onistonni Markaziy Osiyoning ajralmas qismi sifatida qabul qilishi
- Global iqlim o‘zgarishi va Orol muammosi
- Jahonda qashshoqlikka qarshi kurashish

Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi o‘zbek tilidagi chiqishi O‘zbekiston-BMT hamkorlik munosabatlarini rivojlantiribgina qolmay, ona tilimiz-o‘zbek tilining xalqaro maydondagi nufuzini ham oshirdi. O‘zbekistonning Xalqaro hamjamiyatdagi o‘rni, diplomatiyasi va BMT prinsiplariga mos keluvchi olib boradigan siyosatini e’tirof etmoq kerak. Jumladan, BMT inson huquqlari bo‘yicha kengashining 46-sessiyasida nutqi bilan ishtirok etgan O‘zbekiston prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “O‘zbekiston Inson huquqlari bo‘yicha kengash a’zosi sifatida Xalqaro huquqning inson huquqlariga oid umum e’tirof etilgan prinsip va normalarini qat’iy himoya qiladi va faol ilgari suradi” so‘zlari ham bu fikrni tasdiqlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 19 sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutq so‘zлади. Ularni amalga oshirish doirasida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvlari muntazam o‘tkazilmoqda. Xususan, ikkinchi shunday uchrashuv o‘tgan yili noyabr oyida Toshkent shahrida bo‘lib o‘tdi.

2018 yil mart oyida poytaxtimizda Afg‘oniston bo‘yicha yuqori darajadagi xalqaro konferensiya muvaffaqiyatli tashkil etildi, uning yakunida afg‘onlararo tinchlik muzokaralarini boshlash bo‘yicha o‘ziga xos “yo‘l xaritasi”ga aylangan deklaratsiya qabul qilingan edi.

O‘sha yilning dekabr oyida esa BMT Bosh Assambleyasining “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” maxsus rezolyutsiyasi qabul qilindi. Bugungi kunda BMTning Yoshlar huquqlari bo‘yicha konvensiyasi loyihasini tayyorlash ishlari olib borilmoqda. Ushbu konvensiyaning dolzarbligi joriy yil avgust oyida o‘tgan “Yoshlar 2020: global miqyosdagi birdamlik, barqaror taraqqiyot va inson huquqlari” Samarqand forumining xalqaro ishtirokchilari tomonidan yana bir bor qayd etildi.

Ikki yil avval tashkil etilgan Orolbo‘yi mintaqasi uchun inson xavfsizligi bo‘yicha ko‘p sheriklik asosidagi Trast fondi amaliy faoliyat ko‘rsatmoqda.

Qayd etish joizki, O‘zbekiston Prezidenti tomonidan ilgari surilgan barcha tashabbuslar jahon hamjamiyati tomonidan keng qo‘llab-quvvatlanib, amaliyotga tatbiq etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020 yil 23 sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida Vatanimiz tarixida birinchi marta o‘zbek tilida nutq so‘zлади. Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh assambleyasi sessiyasi tarixda

birinchi marta butunlay yangi formatda — koronavirus pandemiyasi tufayli onlayn muloqot rejimida bo‘lib o‘tayotganliini qayd etdi. ‘Bunday global falokat sayyoramizda so‘nggi yuz yilda kuzatilmagan edi. Bu ofat butun insoniyatning zaif jihatlarini yaqqol ko‘rsatdi. Hozirgi tahlikali va murakkab vaziyat yer yuzidagi barcha davlatlar va xalqlar o‘zaro bog‘liq ekanini, o‘rtamizda muntazam muloqot, ishonch va yaqin hamkorlik o‘ta muhimligini isbotladi’, — dedi u. ‘Shu yo‘lda barchamiz hukumatlar, umumiy mas’uliyat tamoyillarini mustahkamlash, xalqaro sheriklikni muvofiq holda rivojlantirish, Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining maqomi va salohiyatini oshirish, vakolatlarini kengaytirish lozimligini chuqur angladik. Maqsadimiz — har bir insonning asosiy huquq va erkinliklarini, salomatligi va farovonligini ta’minlaydigan adolatli global tizimni birgalikda yaratishdir’, — deya ta’kidladi Prezident.

Shavkat Mirziyoyev BMT shafeligida Pandemiyalar davrida davlatlarning ixtiyoriy majburiyatları to‘g‘risidagi xalqaro kodeksni ishlab chiqishni taklif etdi. Ushbu hujjatda har bir davlatning o‘z fuqarolari va xalqaro hamkorlari oldidagi majburiyatları aks etishi lozim. Shuningdek, Prezident tashkilot Bosh kotibi Antoniu Guterrishning inqirozli vaziyatda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning dolzarb muammolariga bag‘ishlangan sammitni o‘tkazish bo‘yicha taklifini ma’qullashini ta’kidladi. Ushbu sessiyada Pandemiya davrida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, Yoshlar siyosati, Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik, “Afg‘oniston—Markaziy Osiyoning ajralmas qismi”, Global iqlim o‘zgarishi va Orol muammosi, Jahonda qashshoqlikka qarshi kurashish kabi bir qator muhim masalalar ham Yurtboshimiz tomonidan ta’kidlangan edi.

Xulosa o‘rnida aytganda, uzoq muddatli tinchlikning faol tarafdori va hamkorlikni har tomonlama kengaytirish tashabbuskorii sifatida O‘zbekiston bundan buyon ham BMT va unga a‘zo davlatlar bilan hamkorlikka katta e‘tibor qaratadi. Bunda BMT rahbariyatining har tomonlama qo’llab-quvvatlashiga ishonch bildirish mumkin. Zero, O‘zbekiston tomonidan ilgari surilayotgan tashabbuslar BMT global maqsadlari, shu jumladan, sayyoramizda tinchlik, barqarorlik va farovonlikni mustahkamlashga qaratilgan Barqaror rivojlanish maqsadlariga to’liq mos keladi.

REFERENCES

1. Независимость и возрождение основ национальной государственности. Книга-альбом, посвящённый 20-летию независимости Республики Узбекистан. Ташкент : Ўзбекистон, 2011. С.144.
2. М.Рахимов, Ш. Рахматуллаев, Р.Турсунова, Р. Назаров “ Очеркиновейшей истории Узбекистана”, Т. “Адабиёт учқунлари” 2016. С. 311.
3. Қирғизбоев А. Ўзбекистон Республикасининг Осиё мамлакатлари биланхалқаро ҳамкорлиги. – Т.: Фан, 2004. – Б.68.
4. Қирғизбоев А. Ўзбекистон Республикасининг Осиё мамлакатлари биланхалқаро ҳамкорлиги.... – Б. 68.
5. Абдуллаев О. Ўзбекистон – Европада Хавфсизлик ва Ҳамкорлик Ташкилоти//Илм сарчашмалари. – Урганч, 2004. – №1. – Б..36
6. Omongaldi o‘g‘li, O. I. (2023). O‘RTA OSIYODA TARIXIY BILIMLARNING TARAQQIYOTI. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER’S THEORY, 1(3), 9-15.

7. Ochilov, I. (2023). Importance of pedagogical technologies in forming thinking and skills in history lessons. *Science and innovation*, 2(B4), 481-484.
8. Iskandar, O. (2023). The Organization of the Khorazm Soviet Republic.
9. Ochilov, I. (2022). SPECIFIC GEOGRAPHICAL ASPECTS OF THE HISTORY AND DEVELOPMENT OF INTERNATIONAL TOURISM. *Science and Innovation*, 1(6), 228-231.
10. Iskandar, O. (2022). XIVA TARIXI VA RIVOJLANISHIDA TURIZMNING AHAMIYATI. *PEDAGOG*, 5(6), 327-329.
11. Ochilov, I. (2022). XALQARO TURIZM TARIXI VA RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS GEOGRAFIK JIHATLARI. *Science and innovation*, 1(C6), 228-231.
12. Ochilov, I. (2023). TARIX DARSLARIDA TAFAKKUR, KO'NIKMA VA MALAKALARNI HOSIL QILISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI. *Наука и технология в современном мире*, 2(16), 43-46.
13. Очилов, И. (2024). XIX АСР ИККИНЧИ ЯРМИДА ХИВА ХОНЛИГИДА СИЁСИЙ ЖАРАЁНЛАР. *TADQIQOTLAR. UZ*, 35(2), 89-93.
14. Ochilov, I. (2024). XIVA XONLIGIDA SOLIQ TIZIMI VA MAJBURIYATLAR. *Молодые ученые*, 2(8), 73-75.
15. Iskandar, O. (2022). OPPORTUNITIES FOR THE DEVELOPMENT OF PLIGRIMAGE TOURISM IN OUR REPUBLIC. CONTEMPOPARY ART AND CULTURE, (ISSUE 11), 47-49.